

CHIN SEVGI

Onore de Balzak

MANGO'RG'ON TUMAN
AHBOROT KUTUBXONASI
MARKAZI
Kol. No 1637
«__» _____ 20__ y.

TOSHKENT
«ADABIYOT UCHQUNLARI»
2018

1652

UO'K: 821.134.2-3
KBK: 84(4Fr)
B – 26
Balzak, Onore de
Chin sevgi: qissa va hikoyalar. / Onore de Balzak. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 160 b.

ISBN 978-9943-5258-9-4

UO'K: 821.134.2-3
KBK: 84(4Fr)



ISBN 978-9943-5258-9-4

© Onore de Balzak, «Chin sevgi». «Adabiyot uchqunlari», 2018-yil.

CHIN SEVGI

(Hikoya)

Ilohiy xaloskorimiz Iso Masih tavalludidan boshlangan melodiy yil hisobi bo'yicha o'n uchinchi asrning boshlarida yoxud shunga yaqin bir paytda Parij shahrida ajib bir sevgi voqeasi sodir bo'lganki, u butun shahar ahlini, shuningdek, qirol a'yonlarini ham behad hayratlantirgan. Din peshvolari, ruhoniy otalar esa ushbu voqeani bizga yodnoma sifatida yozib qoldirganlar; ularning bu ishda qanday xizmat ko'rsatganlarini quyidagi satrlardan bilib olursiz.

Bayon qilayotgan voqeamiz qahramoni Tur shahri fuqarosi ekan. Avom xalq uni soddagina qilib «turlik» deb atagan, sababki, u bizning munavvar Turda tug'ilgan va asl ismi Anso bo'lgan. Ushbu saxovatli hamshaharimiz keksayib qolgan paytida o'zi tug'ilgan qadrdon Turga qaytib kelibdi va agar shaharning hamda abbatlikning[1] solnomalariga ishonsak, u Sen-Marten shahrining meri bo'libdi, lekin Parijda yashagan paytida u mohir zargar bo'lib dovruq qozongan ekan. Xullasi kalom, Anso navqiron

[1] Abbatlik – o'z xususiy yer-suvi, xo'jaligiga ega bo'lgan katoliklar monastiri.

yigitlik chog‘ida o‘zining o‘ta halol va diyonatli kimsa ekanligi va o‘zga ezgu fazilatlari sharofati tufayli Parij shahrining fuqarosi bo‘lgan ekan hamda qirol homiyligini sotib olib (u zamonda bunday homiylik pul turarkan), uning tabaasi bo‘libdi. Sen-Deni ko‘chasida Sen-Le cherkovi yonida Ansoning boj to‘lamay qurgan o‘z uyi bo‘lib, bu yerdagi ustaxonada u zo‘r mahorat bilan yasayotgan go‘zal taqinchoqlar, g‘aroyib buyumlar Parijning ko‘pchilik fuqarolarini bamisoli ohanrabodek o‘ziga tortar ekan. Usta Anso asli turlik bo‘lsa ham, boz ustiga, ikkita azamat yigitni bir cho‘qishda qochira oladigan kuch-qudratga ega bo‘lsa ham, axloqu odobda bag‘oyat ibratli, avliyosifat odam bo‘lgan. U turli xil ko‘ngilochar o‘yinxonalari serob bo‘lgan ulkan shaharda yashasa-da, hattoki ayni gulday ochilgan, qirchillama yigit chog‘ida ham, biron marta bo‘lsin Parijning ishratxona yo fohishaxonalariga qadam qo‘ymagan. Ko‘pchilikning aytishicha, ushbu fazilat xudo tomonidan biz bandalariga ato etilgan insoniy ongni barkamol qilarkanki, faqat shundagina biz muqaddas dinimiz asrorlarining homiysi bo‘lmish iymon-e’tiqodni to‘g‘ri idrok eta olar ekanmiz; binobarin, men zargarimizning axloqiy pokligi sababini chuqurroq anglab olmog‘imiz zarur, deb hisoblayman. Eng birinchi navbatda shunga e’tibor beringki, kitobxon, Anso Parijga piyoda yurib kelibdi, o‘sha zamondagi shahar fuqarolarining e’tirof etishicha, u Ayyub payg‘ambardan ham abgorroq ahvolda ekan va zumda «pov» etib yonib, «pis» etib o‘chadigan o‘zga turliklardan farqli o‘laroq, metin irodali odam bo‘lgan va sabr-matonatda o‘z g‘animidan qasos olishga chog‘langan rohibdan qolishmas ekan. U ustaga shogirdlik qilgan paytlarida astoydil tirishqoqlik bilan ishlagan; o‘zi usta bo‘lganidan keyin

esa, mehnatsevarlik layoqatini o‘n chandon oshirgan, har doim va har jabhada o‘z kasbiga xos bo‘lgan yangi-yangi usullarni o‘rgangan, o‘zi ham eng antiqa usullarni kashf etgan va bu izlanishlari oqibatida ko‘p yangiliklarni ixtiro qilgan. Uyiga kechikib qaytayotgan o‘tkinchi odamlar, shahar ko‘chalarini nazorat qiluvchi tungi soqchilar yoki boshpanasi yo‘q sayoq odamlar har kuni tunda turlikning ustaxonasi derazasida chiroq yonib turganini, jo‘shqin g‘ayratli ustaning esa, ustaxona eshigini ichidan zanjirlab, ammo qulog‘ini ding qilgan holda o‘z shogirdi bilan birgalikda bolg‘achasini do‘qillatayotganini, nimanidir charxlayotganini, kesayotganini, qayrayotganini, egovlayotganini, yo‘nayotganini ko‘rganlar. Muhtojlik mehnatni vujudga keltiradi, mehnat oliy bilimni yaratadi, bilimdan esa boylik yuzaga keladi. Ey, chervonlarni shamolga sovuruvchi, Qobilning[2] ishratparast, maishatparast avlodlari, quloq soling! Hattoki nopok maishiy xohishlar ustamiz xayolini bezovta qilib, qalbini g‘ulg‘ulaga solgan paytlarda ham (odatda bu hol so‘qqabosh bandalarda ko‘proq uchrab turadi), dili pok odamlarni yo‘ldan ozdiruvchi shaytonni xochga cho‘qinib daf qilish imkoni bo‘lmagan taqdirda, turlik Anso gunoh ishga yetaklamoqchi bo‘lgan shum xayollarni bartaraf qilib, jon-jahd bilan bolg‘achasini to‘qillatgancha, oltin va kumushlardan eng nafis, bejirim, fusunkor buyumlar yasar va shu yo‘l bilan tomirlarida jo‘sh urayotgan qaynoq qonini tinchitar ekan. Buning ustiga, turlik Anso quvlik-shumlikni bilmaydigan eng soddadil odam bo‘lgan. Birinchi galda, u Xudodan, keyin o‘g‘rilardan, yana ham ko‘proq mansabdorlardan

[2] Qobil – Odam alayhissalomning to‘ng‘ich o‘g‘li; u g‘ayirlik qilib o‘z ukasi Hobilni o‘ldirgan.

qo‘rqqan, lekin har turli mashaqqatlar, bezovtaliklar uni hammasidan ham ko‘proq vahimaga solgan. Qo‘li ikkita bo‘lsa ham, hech qachon bir paytda ikki ish bilan mashg‘ul bo‘lmagan. U doim xuddi nikohdan o‘tayotgan kelinchakdek tortinib, sipolik bilan gapirgan. Garchi ruhoniy otalar, harb ahli va o‘zga kazo-kazo zotlar uni donishmand odam deb hisoblashmasa ham, u o‘z ona tilini juda puxta bilgan va odamlar bilan hamsuhbat bo‘lishni yoqtirgan. Oradan vaqt o‘tib, usta bilan tobora yaqinroq muloqotda bo‘la boshlagan parijliklar unga qanday kun kechirmoq lozimligi haqida turfa xil saboqlar berganlar; chunonchi, hayotda mudom o‘zi tanlagan yo‘ldan borishni va birovlarning ishi uchun bosh qotirib, yo‘ldan adashmaslikni, ko‘rpaga qarab oyoq uzatishni, hech kimdan pul qarz so‘ramaslikni va hech kimga qarz bermaslikni, hamisha quloqni ding qilib, sergak bo‘lib yashashni, firibgarlarning yolg‘on gaplariga uchmaslikni, qanday ish bilan shug‘ullanayotgani haqida hech kimga og‘zidan gullab qo‘ymaslikni, bergan va’dasida qat’iy turishni, hattoki suvni ham bekorga isrof qilib to‘kmaslikni, pashsha singari befarosat bo‘lmaslikni, o‘z tashvishini odamlardan sir tutishni, hamyonini hech kimga ishonib berib qo‘ymaslikni, ko‘chada yurganida atrofga olazarak bo‘lib qaramaslikni va yasagan buyumlarini ularga sarflagan mehnatidan qimmatroqqa sotishni o‘rgatganlar. Mana shu hayotiy donishmandlik qoidalari uning o‘z foydasini ko‘zlab halol pul topishi uchun zaruriy tajriba orttirishiga imkon bergan. U ana shunday – hech bir kimsaning dilini zarracha og‘ritmay yashagan. Metr[3] Ansoning

[3] Metr – ustoz, murabbiy ma’nosini bildiruvchi bu so‘z odatda hurmatli kishilar ismi oldiga qo‘shib ham aytiladi *(fr.)*.

turmush tarzini kuzatgan ko‘pchilik odamlar: «Jin ursin, koshkiydi, uning o‘rnida men bo‘lsam! Buning uchun bir umr Parij ko‘chalarida loy kechib yurishga ham rozi bo‘lardim», – der ekanlar. Lekin boshqa bir toifa odamlar ham borki, ular hatto Fransiya qiroli bo‘lishga ham shaylar! Ey yigit, sen avvalo xudodan o‘sha zargarniki singari qo‘l so‘ra o‘zingga; uning tomirlari bo‘rtib chiqqan, zabardast, seryung qo‘llari shu qadar chayir bo‘lgan ekanki, agar u mushtini tugsa, eng chapdast shogird, hatto ombir bilan ham u mushtni yoya olmas ekan. Aniqki, bunday azamat yigit ushlagan narsasini, agar xohlasa, hech ham changalidan chiqarmaydi. Turlik zargar hatto temirni ham tishlari bilan g‘ajib, chaynab yutib yubora olar, oshqozoni o‘sha temirni bemalol qabul qilar, ichaklari uni hazm qilib, chiqindisini, yo‘lda hech nimaga ziyon-zahmat yetkazmay, tashqariga chiqarib yuborarkan. Turlikning yelkasiga yer kurrasini ko‘tartirib qo‘ysalar ham qaddi bukilmasdi; qadim zamonda bir majusiy zotga shu vazifa yuklangan ekan, faqat Iso Masih dunyoga kelib, ul zotni bu yukdan ozod qilibdi. Ochig‘ini aytadigan bo‘lsak, turlik yigit bir butun granitdan bir zarb bilan yo‘nib yaratilgan odamlardan edi; bunday odamlar ko‘p harakat va ovoragarchilik oqibatida yaratilgan shaxslardan afzal bo‘ladilar, unday shaxslarning ko‘p yerini yamab, tarashlab epaqaga keltiradilar va hamma yog‘i yirtiq-yamoq bu kimsalar hech nimaga yaramaydilar. Bir so‘z bilan aytganda, metr Anso naq po‘latday toblangan, sheryurak odam bo‘lib, ko‘zlarining nigohi misoli cho‘g‘ ediki, bu cho‘g‘ oltinni eritib yuborishi ham mumkin edi, agar temirchi o‘chog‘idagi olovning tafti yetarli darajada issiq bo‘lmasa; lekin ustaning nigohi hamma narsaning

me'yorini biluvchi parvardigorning xohishiga ko'ra, harir bir nam parda bilan to'silgan ediki, aynan shu parda turlikning jo'shqin hovurini bosib turardi, aks holda, u tevarak-atrofdagi hamma narsani kuydirib kulga aylantirishi mumkin edi. Qani, ayting-chi, yomon yigit ekanmi bizning turlik?

Ezgu fazilatlar sohibi bo'lgan bu zargarimiz hayotini chuqurroq kuzatgan har bir inson shunday savol berishi aniq: «Nima uchun ustamiz chig'anoq ichidagi shilliq qurt singari so'qqabosh, axir undagi tabiat ato etgan nodir xislatlar har bir go'zal ayol qalbini rom qilishi mumkin edi-ku?» Lekin kaltafahm tanqidchilar dunyoda muhabbat degan bebaho tuyg'u borligini bilarmikinlar? Yo'q, bilmaydilar albatta... Oshiq yigit qaygadir borishi, qayoqdandir qaytib kelishi, nimanidir eshitishi, kimnidir poylashi, goh sukut saqlashi, goh to'lib-toshib gapirishi, ba'zan g'unajak bo'lib bukilishi yo qaddini g'ozdek adl tutishi, goh terakdek o'sib, goh giyohdek kichrayishi va butunlay ko'rinmay ham qolishi, bironta musiqa asbobini ting'illatib ma'shuqasining ko'nglini ovlashi, tavba qilib, uzr so'rashi, tupkanning tagiga ravona bo'lishi, sevgilisining xohishi bilan, o'lgan-tirilganiga qaramay, qayoqdandir yo'q narsani topib yo'ndirib kelishi, o'g'irda suvni tuyishi, tunda oyga termulib chuqur-chuqur xo'rsinishi, xonimining mushugi va kuchukchasini erkalashi, tanishlari bilan do'st tutinishi, bod kasali bilan og'rigan uning xolasini ko'rgani kirib, hol-ahvol so'rashi va bu kampirga: «O, ko'rinishingiz juda yaxshi, hali siz bizlardan ham uzoq yashaysiz!» – deb uning ko'nglini ko'tarishi; keyin esa, xonimining yaqin qarindoshlari nimalarni yoqtirishini so'rab bilib olishi, hech kimning g'ashiga tegmasligi, idishlardan birontasini

sindirib qo‘ymasligi, osmondagi oyni olib tushib berishi, qayoqdagi tuturuqsiz gaplarni aytib ezmalik qilishi va safsata sotishi, hech tap tortmay, yonib turgan yong‘inni yorib, toshqin suvni kechib o‘tishi, hamda ma’shuqasi kiygan liboslardan maroqlanib: «Oh, qanday mo‘jizaviy bejirim libos!» yoki «Ah, xonim, bu libos go‘zal jamolingizni yana ham ochib yuboribdi, azbaroyi xudo!» deyishi; keyin shu gapini yana ming xil taxlitda qaytarishi lozim. Bulardan tashqari, uning o‘zi ham xuddi saroy olifta yigitlari singari, yuz-ko‘zini bo‘yab, sochini silliq tarab, zebo kiyinib, beayov kinoyaviy hazillar qilishi, shaytoni lain boshiga solgan barcha musibatlarga yuzida jilva bilan bardosh berishi, qahr-u g‘azabini ichiga yutishi, o‘jar xulqini jilovlashi lozim. Mahbubasining onasini ham, xolasining qizini ham, uy xodimasini ham sovg‘a-salomlar bilan xushlashi, ertalabdan to qorong‘u kechgacha xushmuomala bo‘lib, ochiq chehra bilan yurishi, yo Tangrim ko‘rsatgan yo‘ldan borib murodga yetishi, yo shaytonning dumidan tutib jahannamga ketishi kerak. Axir bilasizlar-ku, ayol zotining ko‘nglini olish juda og‘ir vazifa, – dumini bir likillatadi-yu ketadi-qoladi – hatto aytmaydi ham nega sizdan xafa bo‘lganini. Va nihoyat, gapning po‘stkallasini aytadigan bo‘lsak, tangri xush kayfiyatda bo‘lgan chog‘ida yaratgan bir ma’suma xilqatni sevib qolgan yigit gapga chechanligi bilan uni o‘ziga rom qilishi, atrofida parvona bo‘lib, xuddi shoh Dovud singari musiqa kuylari ila sarmast qilishi, ming-minglab do‘zaxiy azoblarni boshidan kechirishi, bu xonimning sharafiga, Korinf[4] usulida yasalgan yuzlab hashamatli, jimjimador ustunlar tiklashi, lekin

[4] Korinf – Yunonistondagi qadimiy shahar, antik davrda u o‘zining muhtasham me’moriy binolari bilan dovruq qozongan.

shunga qaramay, agar u o‘sha xilqatni bironta arzimas, nihoniy ishda ranjitib qo‘ygudek bo‘lsa, holbuki, xonimning o‘zi ham nima istashini bilmaydi va lekin o‘sha narsani bilishni oshiq yigitidan talab qiladi, shu zahoti xuddi moxovdan hazar qilgandek qochib ketadi. Xonim o‘zicha haq – hech nima qilolmaysan. Ba’zi bir erkaklar bunday holatda g‘amga botadilar, g‘azablanadilar va telba bo‘la boshlaydilarki, buni tasavvur qilish ham qiyin. Ayrim yigitlar shu choti ayri xotinni deb hatto o‘z jonlariga qasd qiladilar. Erkak kishi ana shu jihatlari bilan hayvondan farq qiladi, zero hayvon hech qachon bebaxt sevgi tufayli jinni bo‘lmaydi. Mana sizga hayvonlarda qalb yo‘qligini bildiruvchi aniq dalil. Oshiq yigit eplay olmaydigan hunar bo‘lmasligi kerak dunyoda: u masxaraboz ham, askar ham, tovlamachi ham, hazilkash ham, ko‘zboyloqchi ham va yana qiziqchi, qirol, dangasa, rohib, laqma, mayxo‘r, firibgar, maqtanchoq, chaqimchi, safsataboz, tuturuqsiz, shilqim, pulni po‘choqday sovuruvchi, ovsar, devona bo‘la olishi kerak; Iso payg‘ambar bunday amallardan voz kechgan, donishmand kimsalar undan ibrat olib, ishq-muhabbatdan yuz o‘girmoqdalar. Bunday mashg‘ulotga mukkasidan ketgan kalondimog‘ erkaklar birinchi navbatda vaqtlarini, jonlari va qonlarini ishq yo‘lida qurbon, dil rozlarini oshkor qilishga majbur bo‘ladilar, yuraklari, qalblari, fikr-xayollari haqida gapirmay qo‘yaqolaylik – ularga haddan ziyod o‘ch bo‘ladi xotin zoti. Ular bir-birlari bilan chakaklari tinmay valdirasharkan, shunday deydilar: «Agar erkak butun borini menga baxshida qilmas ekan, demak, u menga hech nima bermadi, deb hisoblayman». Yana shunaqangi badqovoq xonimlar bo‘ladiki, oshiq yigitlari ularning istaklarini o‘lib-

tirilib, jonlarini jabborga berib bajargan bo‘lsalar ham, qovoqlaridan qor yog‘ib: «Bo xudo, shuyam ish bo‘ptimi, muncha lallaymasa!» – deb burunlarini jiyiradilar. Sababki, bu beshafqat, kalondimog‘ xotinlar hech qachon hech nimaga qoniqmaydilar, doim nimanidir qo‘msaganlari-qo‘msagan... Bu qonun Parij shahrida bo‘lgan, bor va bundan keyin ham kuchini yo‘qotmaydi, zero ayol zotidan bo‘lgan chaqaloqlarni cho‘qintirayotganlarida ularni faqat Parijdagina namakob suvda cho‘miltiradilar. Mana shuning uchun ham Parij ayollari tug‘ilgan kunlaridan boshlab mug‘ombir, shayton bo‘lib o‘sadilar.

Metr Anso esa o‘z ustaxonasidagi lovullab yonib turgan o‘chog‘ida kumush eritar, oltinga zarb qilar ekan, yasayotgan bu buyumida kishi ko‘zini qamashtirishga qodir bo‘lgan ohanjamali bezaklarni ishlab, muhabbatning afsonaviy naqshlarini aks ettirmoqchi bo‘lar, ammo buning uchun usta yuragining qo‘ri yetarli darajada alangalanmasdi, zero u hech yerdan jonli nusxa topolmayotgan edi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bizga osmondan qovurilgan kakliklar yog‘ilib tushmaganiday, iffatli qizlar ham Parijda, hech narsadan hech narsa yo‘q, erkaklarning quchog‘iga tashlanmaydilar, hattoki ular qirol zargari bo‘lganlarida ham. Bizning turlik zargar esa, ilgari aytib o‘tganimizdek, nafaqat qirol zargari, yana o‘zga fazilat sohibi – axloqan pok inson edi. Lekin metr Anso, qimmatbaho buyumlar xarid qilgani do‘koniga kelgan oliynasab va boyvuchcha xonimlardagi saxiy tabiat ato etgan barcha latofatli, malohatli xislatlarni ko‘ra olmasdi. Do‘konga kelgan bu xonimlar sho‘x-sho‘x chaqchaqlashishar, xarid qilayotgan buyumlari narxini pasaytirmoqchi bo‘lib, zargarga hazil-huzul gap qotishar, xushomad qilib uni iydirmoqchi

bo‘lishardi; ko‘pincha u uyiga qayta turib, shular haqida shoirona teran xayolga botar, o‘zini xuddi uyasi yo‘q kakku qushdek his qilardi. Shunda u o‘ziga-o‘zi bunday derdi: «Bas, endi uylanmasam bo‘lmaydi, xotin uyni supurib-sidiradi, ovqat pishiradi, kiyim-kechakni yamaydi, pokiza saqlaydi, sho‘x-sho‘x qo‘shiqlar aytadi, u mabodo biron-bir taqinchoqni yoqtirib qolsa, hamma eri bor xotinlar singari, menga tantiqlik qilib: «Voy, jonginam, manavini qara, biram chiroyli ekanmi?» – deydi. Bu gapni eshitgan qo‘shnilarim xotinimni darrov tanishadi va men haqimda: «Qanday baxtiyor-a, bu yigit!» – deyishadi ichlarida. Shunda zargar o‘zi orzu qilgan ishlarni xayolida birin-ketin amalga oshira boshlaydi: mana, u nikohdan o‘tib uylandi, suyukli xotinini bag‘riga bosib erkaladi, uni zeb-ziynatli liboslar bilan yasantirdi, unga tilla zanjir sovg‘a qildi, yostiqdoshining boshidan to oyog‘igacha – butun vujudini ardoqlab sevdi, o‘zining shaxsiy jamg‘armasini istisno qilganda, uyidagi jamiki ro‘zg‘or va xo‘jalik ishlari va ashyolarini xotinining ixtiyoriga topshirdi. U xotinini bolaxonadagi o‘z yotoqxonasiga joylashtiradi. Bu xonaning derazalari chiroyli, oynaband, yeriga sholcha to‘shalgan, devoriga gulqog‘ozlar yopishtirilgan; bu xonaga Anso ko‘rkam javon va atrofiga sariq rangli parda tortilgan, oyoqlari jimjimador juda keng karavot olib chiqib qo‘yadi; chiroyli ko‘zgular sotib oladi... Zargarimiz o‘z uyi eshigiga yaqin kelib qolganida, tasavvuridagi xotinidan o‘ntacha farzand ko‘rgan edi. Evoh, xotin ham, bolalar ham g‘oyib bo‘lishdi bolg‘achaning to‘qillashidan; Anso esa, o‘zi ham sezmay, xayolida orziqib kutgan sharpalarni g‘oyat antiqa chizgilarda aks ettirar, ishqiy armonlarini

esa, xaridor xonimlarning ko‘ngliga xush yoquvchi ajoyib suratlar bilan ifodalardi; xaridor xonimlar-ku, bu suratlar zamirida qancha xotin va nechta bola yashirinib yotganidan bexabar edilar. Usta zargarimiz o‘z iste’dodini qancha ko‘p kamolga yetkazgan sari, o‘zi butun dardini ichiga yutib shuncha ko‘proq yovvoyilashib borardi. O‘shanda agar Tangri shafqat qilmaganida, bu dunyodan u muhabbat lazzatidan bahramand bo‘lmay o‘tib ketgan bo‘lardi, vale boqiy dunyoda u albatta chin muhabbat mevasini tatib ko‘rgay. Yuksak fazilatlar sohibi bo‘lmish ulug‘ inson Aflotun shunday saboq beradi. Hayhot, biz bu qissamizga turli xil mulohazalarni tiqishtiraversak, uni ortiqcha chekinishlar, keraksiz sharhlar bilan semirtirgan bo‘lamiz; odatda, iymoni sayoz odamlar, bizdan o‘z ijodimizni aynan shunday chekinishlar, keraksiz sharhlar bilan bejashni talab qiladilar, xuddi qip-yalang‘och bo‘lib dingillab, chopqillab yurishni xohlagan bolakayni yo‘rgaklab qo‘yishgandek. Iloyo, o‘sha safsataboz mahmadonalarga iblis o‘zining qizdirilgan panshaxasi bilan uchta huqna[5] qo‘ysin. Mana endi, hikoyamizni bemalol boshlasak bo‘ladi.

Metr Anso qirq bir yoshga qadam qo‘ygan paytida ajib bir voqeani boshidan kechirdi. Xush-havo kunlarning birida u Senaning so‘l sohilida uylanish haqida teran xayolga berilib sayr qilib yurarkan, Prichetnik dalasi deb atalgan va Sen-Jermen abbatligining (dorilfununning emas) mulki hisoblangan dalaga borib qolganini sezmay qoldi. Turlik usta sayr qilib yurib, bir maysazor o‘tloqda ko‘rdi o‘zini. Bu yerda u nihoyatda g‘aribona kiyingan bir qizni uchratdi; u qiz Ansoni shaharning aslzoda kishilaridan deb o‘ylab, unga ta’zim qildi

[5] Huqna – klizma.

va: «Xudo sizni o‘z panohida asrasin, monsenyor», – dedi. Uning qizlargagina xos bo‘lgan nazokatli ovozi shunday iltifotli saxovat bilan yangradiki, samoviy kuyni eslatuvchi bu nafis ovoz zargarni o‘ziga maftun qildi-yu, bu qizni u chin yurakdan sevib qoldi – o‘sha paytda hamma narsa, ayniqsa, mudom unga tinchlik bermayotgan «qachon uylanarkanman», degan shirin orzu yo‘lini ravon, mushkulini oson qilgandi. Garchi u hozir shunday xayol og‘ushida bo‘lsa ham, baribir, qizning yonidan o‘tib nari ketdi va burilib orqasiga qaytishga yuragi jur’at etmadi, zero belidagi kamarini yechib rohatlanishdan ko‘ra, shu kamaridan sirtmoq yasab o‘zini osishni afzal biluvchi iboli bokira qizdek tortinchoq edi u. Mana, nihoyat, metr Anso u qizdan kamon o‘qi uchib bora oladigan yergacha uzoqlashganida, o‘n yil burun zargarlar ustaxonasiga ishga qabul qilingan, keyin Parijning badavlat fuqarosi bo‘lib, foniy hayot yo‘lining yarmini bosib o‘tgan odam ayol kishining jamoliga nigoh tashlashga haqli emasmi axir, xususan, taxayyulidagi orzu-istaklari jo‘sh urib unga tinchlik bermayotgan chog‘da, deb juda to‘g‘ri va qat’iy qarorga keldi u. Mana, shartta orqasiga burilib, qiz turgan yerga qaytib bordi va jur’at etib uning yuziga qaradi... Qiz oriq sigirining bo‘yniga bog‘langan arqonni tortar, sigir esa, ariq bo‘yidagi o‘tlarni chimdib yeyish bilan ovora edi.

– Yaxshi qiz, – dedi Anso, – siz juda qashshoq bo‘lsangiz kerak, qarasam, hatto yakshanba kuni ham qo‘lingiz orom olmayapti. Nahotki, qamoqqa tushishdan qo‘rqmasangiz?

– Janobim, – dedi qiz ko‘zlarini yerga tikkancha, – nega qo‘rqarkanman, axir men abbatlikning mulkiman-ku. Muhtaram abbat hazratlari

kechki ibodatdan keyin sigirni dalaga olib chiqib o‘tlatishimizga ruxsat berganlar.

– Bundan chiqdi, sigir sizning joningizdan ham aziz ekan-da?

– Gapingiz to‘g‘ri, janobim, bizni yedirib-ichiruvchi yagona boquvchimiz shu sigir.

– Sizni bunday abgor ahvolda ko‘rib hayron qolyapman! Kiyimingiz juldur-juldur... eskirib uvada bo‘lib ketgan, hatto yakshanba kuni ham dalada yalang oyoq yuribsiz, vaholanki, siz shunday bebaho xazinalar sohibasisizki, abbatlikka qarashli butun mulkni aylanib chiqqanda ham bunday boylikni topib bo‘lmaydi. Shahar yigitlari sizga muhabbat izhor qilgani orqangizdan ergashib, jig‘ingizga tegishayotgandir?

– Hecham, janobim. Axir men abbatlikning mulkiman-ku, – deb yana takrorladi qiz va chap qo‘liga taqilgan temir halqani zargarga ko‘rsatdi; bunaqa halqa dalada o‘tlab yurgan uy hayvonlari bo‘yniga osiladi, faqat qizning halqasida qo‘ng‘iroqcha yo‘q edi.

Dilbar qiz ustaga ko‘z tashladi, uning ko‘zlaridagi o‘kinch alomatini ko‘rib, Anso hayrat og‘ushida to‘xtab qoldi. Ma’lumki, eng kuchli ruhiy iztirob yurakdan yurakka ko‘z orqali yetib boradi.

– Bu nima? – deb so‘radi Anso halqaga qo‘lini tekkizib, – u hamma gapni qizning o‘zidan so‘rab bilmoqchi edi. Garchi bu halqadagi abbatlikning tug‘rosi ancha bo‘rtiq holda bo‘lsa ham, zargar uni ko‘zdan kechirishni istamadi.

– Janobim, men abbatlik mulki – qulning qiziman, shu sababli, menga uylangan har qanday odam, hatto u Parij fuqarosi bo‘lsa ham, qulga aylanadi. Ming urinsin, u joni va tani bilan abbatlikning mulki

bo‘ladi-yu, mabodo o‘sha odam nikohdan o‘tmay turib men bilan qovushgudek bo‘lsa, o‘shanda ham bolalarimiz abbatlik mulki bo‘lib qolishlar. Shuning uchun ham hamma mendan yuz o‘girgay, men dalada yolg‘iz qolib ketgan bir jonivordek tashlandiq qizman. Hammadan ko‘proq menga alam qiladigani shuki, abbatlik piri buzurgi ko‘ngli xohlagan paytda meni o‘zimga o‘xshagan bironta qulga qo‘shib qo‘yadi. Hattoki hozirgidek juldurvoqi va badbashara bo‘lmaganimda ham, bordi-yu, biron kishi meni chin dildan sevib qolgudek bo‘lsa, baribir, u qo‘limdagi manavi halqani ko‘riboq darrov xuddi qora o‘latga yo‘liqishdan qo‘rqqanday, tiraqaylab qochib ketadi.

Shunday deb qiz yana sigirining arqonidan tortdi.

– Yoshingiz nechada? – so‘radi zargar.

– Bilmayman, janobim, lekin xo‘jayinimiz monsenyor piri buzurg buni yozib qo‘ygan.

Bunday shafqatsizlik qashshoqlikning achchiq azobini tortgan ustamizning rahmini keltirdi. U qiz bilan yonma-yon yurib borarkan, ikkovlari ham teran sukutga tolgan holda bir jilg‘a bo‘yiga yetdilar.

Zargar qizning chiroyli chehrasiga, uning sholg‘omdek qizarib ketgan qo‘llariga, ulug‘vor qaddi-qomatiga, uning changga botgan, go‘yo bibi Maryam haykali uchun tarashlangan oyoqlariga maroqlanib qarardi. Qizning qomati va jamolidagi bunday nafis, nozik belgilar uni o‘ziga maftun qilgan edi – Anso Parij shahrining hamda dehqon qizlarning himoyachisi avliyo ayol Jenevyevaning tirik portreti qarshisida turgandek his qilardi o‘zini. Shuni bilingki, qalbi ham, niyatlari ham pok bo‘lgan ma’sum zargarimiz bu qizning maftunkorona iymanib, ko‘kragini dag‘al ro‘moli bilan yashirayotganini kuzatarkan, uning qordek oppoq siynasi latofatini

aniq tasavvur qilardiki, g'arq pishgan olmani ko'rgan maktab bolasi havas bilan tamshanganidek, ustani ham ro'mol panasidagi siynalar shunday o'ziga rom qilgan edi.

Yana shuni ham aytib o'tish joizki, zargarning ko'ziga tashlangan bu qizdagi barcha jihatlar bebaho xazina edi, rohiblarga tegishli bo'lgan jamiki mulk singari. Bu qiz shunday noyob gul ediki, unga qo'l uchini tekkizish qanchali qat'iy taqiqlangan bo'lsa, Anso ham shunchalik intizor edi qaynoq sevgiga, yuragi esa hayajonlanganidan «gurs-gurs» tepardi.

– Sigiringiz juda ham yaxshi ekan, – dedi u.

– Sut ichishni xohlaysizmi? – dedi dehqon qiz. – Bu yil may oyi issiq keldi, shaharga hali ancha uzoq.

Chindan ham beg'ubor osmonda qatra bulut ko'rinmas, tevarak-atrof xuddi temirchining o'txonasi yanglig' jazirama issiq edi. Hammayoqdan – yaproqlardan, ob-havodan, yigit-u qizlardan, yoshlik ifori ufurib turardi. Hamma narsa ko'kargan, gullagan, muattar hid taratardi. Qizning hech qanday maqsadni ko'zlamay, soddadillik bilan qilgan taklifi (zero, qizning bu ikki og'iz so'zidagi g'ayrita'rif jozibani, uning uyatchan nigohini tog'-tog' oltinga ham topib bo'lmasdi) ustaning yuragini eritib yubordi, shunda u bu qullikdagi qizni butun Parij poyiga bosh urib sajda qiladigan qirolicha qiyofasida ko'rishni xohladi.

– E, yo'q, azizam, menga sut emas, siz keraksiz, men sizni sotib olish uchun rozilik so'ramoqchiman.

– Buning iloji yo'q. Men to o'la-o'lgunimcha abbatlikning mulki bo'lib yashasam kerak. Bizlar bu yerda juda ko'p yillardan beri yashaymiz, bobolarimiz ham shu yerda yashagan, nevaralari ham shu yerda

2652

kun kechirurlar. Mening peshanamga ham, farzandlarim peshanasiga ham baxtiqaro ajdodlarimga o'xshab, abbatlik dargohida qul bo'lib yashab dunyodan o'tib ketish yozilgan, zero piri buzurg hazratlarining o'zi ham biz qullaridan nasl qolishini talab qiladi.

– Iye! – deb yubordi turlik. – Nahotki, bu maftunkor ko'zlaringizga shaydo bo'lgan bironta azamat, xuddi men qiroldan o'z ozodligimni sotib olganimday, sizni ozodlikka chiqarish uchun pul to'lashga jur'at etmagan bo'lsa?

– Ozodlik juda qimmat turadi, shu sababdan, meni yoqtirib qolgan odamlar bir ko'rinish beradilar-u, darrov qochib qoladilar.

– O'z sevgan yigitingiz bilan bu yerdan biron uchqur arg'umoqqa minib qochib ketish haqida hech o'ylamadingizmi?

– O, janobim, agar meni tutib olishsa, darhol dorga osadilar, sevgan yorim, hatto u aslzoda bo'lganida ham, butun yer-suvi, mol-mulkidan mosuvo bo'ladi. Arzimayman men bunday katta fidoyilikka, bilingki, abbatlikning qo'li juda uzun, bu dargohdan har qanday abjir odam ham qochib keta olmaydi. Men mana shu alfozda ming-ming riyozatlar chekib, xudoga sig'inib yashab kelyapman, demak, peshanam sho'r ekan.

– Otangiz nima ish qiladi?

– U abbatlikning tokzorida ishlaydi.

– Onangiz-chi?

– Onam kir yuvadi.

– Ismingiz nima sizning?

– Mening ismim yo'q, muhtaram janobim. Otamni Eten deb cho'qintirishgan, onamning ismi Etenna, men bo'lsam kamtarin cho'ringiz Tenettaman.

– Azizam mening! – dedi metr Anso. – Men umrimda hech qachon hech bir ayolni yoqtirmaganman,

lekin sizni sevib qoldim, aminmanki, qalbingiz buyuk xazinalar maskanidir. Keyingi paytlarda men o‘zimga umr yo‘ldosh tanlashga qat’iy ahd qilib yurgan edim; hamonki siz shu muborak damda ko‘z oldimda namoyon bo‘lgan ekansiz, buni men ilohiy dasturilamal deb bilaman. Agar mendan hazar qilmasangiz, iltimos, samimiy do‘stingiz deb biling meni.

Qiz yana ko‘zlarini yerga qadadi. Turlik zargar bu so‘zlarini qat’iy ishonch bilan sidqidildan gapirdiki, Tenettaning ko‘zlari g‘ilt-g‘ilt yosh bo‘ldi.

– Yo‘q, janob, – deb javob qildi u, – agar aytganingizga rozi bo‘lsam, umrbod g‘am-hasratda baxti qaro bo‘lib yashashingizga sababchi bo‘laman. Qashshoq cho‘ri qizga ikki og‘iz shirin so‘zning o‘zi kifoya.

– Siz, bo‘tam, kim bilan uchrashganingizni bilmaysiz hali!

Shundan so‘ng, turlik cho‘qinib olib, qo‘llarini qovushtirgancha dedi:

– Barcha zargarlarning homiysi avliyo Eluaga qasamyod qilib aytamanki, men oliy nav kumushdan g‘oyatda ko‘rkam ikkita tokcha yasab, ularni san’atim gullari bilan bezantiraman. Keyin bitta tokchani qimmatli zavjai muhtaramamni qullikdan ozod etgani uchun minnatdorchilik yuzasidan mo‘tabar sohibamiz bibi Maryamga bag‘ishlayman, bu yerda turgan qul qiz Tenettani ozodlikka chiqarishda qilgan harakatlarim samara berganida, yuqorida nomi zikr etilgan muqaddas himoyachimga, iltijolarimni qabul aylagani uchun, ikkinchi tokchani baxshida qilaman. Bundan tashqari, pok dilim haqqi astoydil qasam ichib aytamanki, bu ko‘zlagan ishimni ro‘yobga chiqarishda hech nimamni ayamayman va to

umrimning oxirigacha tinchimayman. Bilaman, xudo iltijolarimni eshitadi... Siz chi, jonginam? – dedi metr Anso qizga o'girilib.

– Janobim, sigirim qochib ketdi, tutishga yordam bering! – dedi Tenetta yum-yum yig'lab va do'stining oyog'iga bosh urib. – Sizni to o'la o'lgunimcha sevaman, lekin kecha ichgan qasamingizdan.

– Yuring, sigirni tutaylik, – deb javob qildi metr Anso tiz cho'kkan qizni ko'tararkan, lekin hali uni o'pishga yuragi betlamadi, garchi qizning ko'ngli shuni xohlab turgan bo'lsa ham.

– Endi sigirim qochib ketgani uchun meni kaltaklashadi, – dedi u.

Ana shunda bizning zargarimiz ishqiy kechinmalarga zarracha ham parvo qilmagan yaramas sigirning orqasidan quva ketdi. Oradan sal vaqt o'tmay, turlik bu sarkash hayvonning shoxlaridan mahkam changallab oldi. Agar yana bir tixirlik qiladigan bo'lsa, uni xuddi bir siqim poxoldek osmonga otishdan ham qaytmasdi.

– Yaxshi qoling, tasadduq. Agar shaharga borgudek bo'lsangiz menikiga ham kiring – uyim avliyo Le cherkovining yonginasida. Ismim metr Anso. Men marhamatli qirolimizning zargariman. Siz kelasi yakshanba kuni shu dalada bo'lishga so'z bering; men albatta kelaman, momaqaldiroq gumburlab, jala quyib tursa ham.

– O, marhamatli xojam! Agar zarur bo'lsa, chetan devordan ham oshib o'taman. Men minnatdorchilik yuzasidan, sizdan hech nima talab qilmay, zarracha ham ziyon-zahmat yetkazmay, hattoki boqiy dunyodagi rohat-farog'atli hayotimdan voz kechib bo'lsa ham, sizniki bo'lishdan qaytmasdim. Lekin ungacha men sizning haqqingizga parvardigorga astoydil tinmay ibodat qilgayman.

Shundan keyin qiz ustaning orqasidan kuzatarkan, turgan yerida xuddi metin ustundek qimirlamay turib qoldi. Usta esa asta-asta odim otib uzoqlashib borarkan, sohibjamol qizni yana bir marta ko'rish uchun o'qtin-o'qtin orqasiga o'girilib qarardi. Metr Anso juda uzoqlashib ketib, oxiri ko'rinmay qolganida ham qiz hanuz turgan yeridan jilmadi, kech kirib qorong'i tushganda ham teran xayolga berilib daladan ketmadi. U ne hol yuz berganini hech tushunmas, nahotki shularning hammasini tushimda ko'rgan bo'lsam, deb hayron bo'lardi. U uyga yarim kechada yetib bordi va kech qaytgani uchun uni kaltaklashdi, lekin qiz kaltak zarbini hech his qilmadi.

Saxovatpesha Ansoning uyqisi qochib, ishtahasi bo'g'ildi, hatto ustaxonani yopib ishlamay qo'ydi. U Tenettani shunday zo'r ishtiyoq bilan sevib qolgan ediki, faqat shu qiz haqida o'ylar, hamma yerda faqat uni ko'rar va dunyodagi hamma narsa zargarga Tenetta bo'lib ko'rinardi. Ertasi kuni ertalab turlik Anso piri buzurg hazratlari bilan suhbatlashgani yuragini hovuchlab abbatlik sari yo'l oldi. Lekin yo'lda ketayotganida u, shoshqaloqlik qilmasligim, ehtiyotkorlik bilan ish ko'rishim kerak, degan qarorga keldi-da, eng avval qirol a'yonlaridan birontasiga iltijo qilib, uning shafoatiga suyanmoqchi bo'ldi va yana Parijga qaytdi – o'sha paytda qirol saroyi Parijda edi. Zargarlar korxonasining taniqli ustasi bo'lmish Ansoning el hurmatiga musharraf bo'lganini, yasagan nafis va nodir buyumlari hamda o'zining boadab muomalasi bilan butun shahar ahli hurmatini qozonganini yaxshi bilgan qirol saroyining bosh noziri bu oshiq yigitni o'z himoyatiga olishga so'z berdi. Anso bu mansabdorning iltimosiga ko'ra,

bundan sal oldinroq shirinliklar uchun mo'ljallangan, hammayog'i qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bir tilla quticha – zargarlik san'ati mo'jizasini yasab bergan edi. Bosh nozir bu qutichani saroy xonimlaridan biriga tuhfa qilgan edi. Mana, u metr Ansoga yo'rg'a otni, o'zi uchun esa o'zining otini egarlashni buyurdi va ikkovlari alhol abbatlik tomon yo'l olishdi. Bu aslzoda a'yon endilikda to'qson uch yoshga kirgan piri buzurg hazratlari Hugon de Senekterning qabuliga kirish uchun ijozat oldi va o'z taqdirining qanday hal bo'lishini hayajonlanib kutayotgan zargar bilan birgalikda zalga kirdi-da, piri buzurg Hugonga murojaat qilib dedi:

– Hazratim, oddiygina bir iltimos bilan kelgan edik, bir yaxshilik qilsangiz va shu iltimosimizni eshitishdan oldin uni bajarishga so'z bersangiz.

Lekin abbat bosh chayqab qo'yib, a'yonga bunday javob qildi:

– Agar shunday qilsam, cherkov nizomiga sodiqligimga xiyonat qilgan bo'laman.

– Siz oldin gapimni eshiting, hazratim, – dedi aslzoda a'yon, – bizning mana bu saroy zargarimiz bir qizni sevib qolib, ishq alangasida yonmoqda; shunga ko'ra, kamina siz hazratimdan o'shal qizni ozodlikka chiqarishingizni iltimos qilaman, o'zim esam, sizning har qanday istagingizni so'zsiz bajarishga so'z beraman.

– U qaysi qiz ekan? – so'radi abbat ustadan.

– Uning ismi Tenetta, – dedi zargar tortinchoqlik bilan.

– Shunaqa deng! – dedi qariya Hugon jilmayib. – Qarmog'imizga shunday baliq ilinibdi, demak, xo'ragimiz chakki emas ekan-da. Va lekin bu – juda jiddiy masala, bir o'zim hal qila olmayman uni.

– Gapingizning ma'nosini tushunib turibman, avliyo ota, – dedi a'yon qovoq solib.

– O, yaxshi yigit, – dedi piri buzurg, – u qiz qancha turishini bilasizmi?

Shunday deb, u kotibiga Tenettani bu yerga boshlab kelishni, lekin qizning husn-jamolini mehmonlarga bo'rttirib ko'rsatish uchun, uni yuvib-tarab yasantirishni buyurdi.

– Muhabbatingiz xavf ostida, – dedi aslzoda a'yon zargarni chekkaroqqa boshlab borib. – Voz kecha qoling bu niyatingizdan, axir siz xohlagan yeringizda, hatto qirol saroyida ham aslzoda kishilar nasabidan bo'lgan va siz bilan turmush qurishga jon-jon deb rozi bo'ladigan go'zal, navnihol ayollarni uchratishingiz mumkin-ku. Qolaversa, qirolimizning o'zi sizning dvoryanlardek yer-mulk sohibi bo'lishingizga ko'maklashajak, ana unda avlodlaringiz ham mavridi kelganda akobir zotlar tabaasida bo'lurlar. Nima, yangi oliyjanob kishilar avlodining asoschisi bo'lishingizga oltinlaringiz yetmaydimi?

– Men bunday qilolmayman, – dedi Anso, – so'z berganman.

– Unda, o'sha dilbaringizni nima qilib bo'lsa ham sotib oling. Bilaman, rohib ahli pulni ko'rsa hamma narsaga rozi bo'ladi.

– Hazratim, – dedi usta yana piri buzurg qoshiga yaqin borib. – Sizga ushbu zamindagi bandalarga xudoning oliy marhamatini ulashish vakolati berilganki, ul ilohiy marhamat jamiki mazlum, baxti qaro kishilarga atalgandir va bu ilohiy marhamat bizning g'am-hasratlarimizni bartaraf qilishga qodir bo'lgan misiz rahm-shafqat xazinasidir. Men kunduzgi va tungi ibodatlarimda ezgu so'zlar bilan mudom sizni xotirlagayman va sizning saxovatingiz tufayli o'z

baxtimga erishganimni hech qachon unutmasmen, agar siz yuqorida nomi zikr etilgan qizni qonuniy nikoh o'qitib, menga turmushga berib, kaminaga saodat baxsh etishga va bizlardan dunyoga kelgan bolalarni o'zingizning qullaringiz deb hisoblamaslikka rozi bo'lsangiz. Bu qilgan yaxshiligingiz uchun men sizga hammayog'i oltin bezaklar, qimmatbaho toshlar, qanotli farishtalar bilan bezatilgan, butun xristian olamida yakka-yu yagona ajib ehsondon[6] yasab beraman. Hech yerda tengi yo'q bu ehsondon ko'zingizni quvontiradi va mehrobingiz shon-shuhratini olamga shunday yoyadiki, xudojo'y shaharliklar ushbu abbatlikni ziyorat qilgani gala-gala bo'lib kela boshlaydilar, hattoki o'zga yurtli mashhur kishilar ham muhtasham ehsondonni o'z ko'zlari bilan ko'rish ishtiyoqida dargohingizga ziyoratga keladilar.

– Bo'tam, – deb javob qildi piri buzurg, – siz telba bo'lib qolganga o'xshaysiz! Hamonki siz bu qizni xotin qilib olmoqchi ekansiz, unda butun mol-davlatingiz ham, o'zingiz ham abbatlik kapituli[7] mulkiga aylanursiz.

– Ha, hazratim, bu sho'rpeshana qizga bo'lgan muhabbatim telba qilib qo'ydi meni. U qizning jismoniy kamolotidan ham ko'ra uning g'aribona kun kechirishi va qalbi pok nasroniy qiz ekanligi ko'proq rahmimni keltirdi. Lekin hammadan ko'proq, – deb ko'zlarida g'ilt-g'ilt yosh bilan gapini davom ettirdi turlik, – sizning badqahrligingiz meni hayratga solmoqdaki, bu haqda yuzingizga aytishga jur'at etdim, taqdirimni hal qilish sizning ixtiyoringizda ekanligini bilsam ham. Ha, hazratim, men qonunni

[6] Ehsondon – monastir va cherkovlarda qayiqcha shaklidagi quti, unda zaxiradagi muqaddas non va vino olibyuriladi; cho'qintirilayotgan nasroniylarga shu non va vinodan beriladi.

[7] Kapitul – monastir ruhoniylari kengashi.

MUNDARIJA

Chin sevgi. Hikoya. *Qodir Mirmuhamedov*..... 3
G'oyib bo'lgan durdona. Hikoya. *Naim Karimov*..... 36
Gobsek. Qissa. *Mahkam Mahmudov va Mirziyod Mirzoidov* 74

Adabiy-badiiy nashr

ONORE DE BALZAK

CHIN SEVGI

Qissa va hikoyalar

Muharrir
Fazilat MUHAMMADIYEVA

Badiiy muharrir
Sunnat MUSAMEDOV

Sahifalovchi
Javohir ORIFJONOV

Texnik muharrir
Husanboy ERGASHEV

Litsenziya raqami: AI № 182. 08.12.2010 da berilgan.
Bosishga 28.06.2018-y.da ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1\32.
Bosma tobog'i 10,0. Shartli bosma tobog'i 16,08.
Garnitura «Peterburg». Ofset qog'ozi.
Adadi 5 000 nusxa. Buyurtma №34.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yoshlar nigohi» xususiy korxonasida tayyorlandi.

Nashriyot manzili:
Toshkent, O'qchi ko'chasi, 109-uy.

«ADAD PLYUS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 100097, Toshkent, Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.
Telefonlar: +99890 934 36 76; +99899 473 93 08.